

QO'QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2026-yil 3-son)



FILOLOGIYA  
PHILOLOGY

**FEYK XABARLAR VA AXBOROT XURUJLARI: GIBRID URUHLARNING  
ZAMONAVIY SHAKLI (AQSH misolida)**

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i03.065>

**Mamadaliyeva Zulfizar Yusufjon qizi**

O'zDJTU mustaqil izlanuvchisi

[zulfizarmamadaliyeva785@gmail.com](mailto:zulfizarmamadaliyeva785@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot feyk xabarlar va axborot xurujlarini zamonaviy gibril urushlarning yangi shakli sifatida tahlil qiladi. Ishda gibril urushlarning mohiyati, ularning axborot maydonida amalga oshirilish mexanizmlari, shuningdek, jamoatchilik ongiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganiladi. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi sharoitida axborot xurujlari an'anaviy harbiy harakatlar bilan cheklanmay, dezinformatsiya, manipulyativ narrativlar va koordinatsiyalangan axborot kampaniyalari orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotda feyk xabarlar vositasidagi provokatsiyalar, ularni identifikatsiya qilish metodlari va gibril taktikalarning psixologik hamda siyosiy natijalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, axborot xurujlarining jamoatchilik fikri, ijtimoiy barqarorlik va milliy hamda xalqaro qaror qabul qilish jarayonlariga ta'siri yoritiladi. Natijalar professional jurnalistika, etik me'yorlar va axborot xavfsizligining gibril tahdidlarga qarshi kurashdagi rolini asoslaydi.

**Kalit so'zlari.** Axborot xuruji, feyk, trolling, xamaleon, fishing, rangli inqilob, 4GW, Coming-out, axborot mojarosi, factchecking.

**Аннотация:** Настоящее исследование посвящено анализу фейковых сообщений и информационных атак как новой форме современных гибридных войн. В работе рассматриваются сущность гибридных войн, механизмы их реализации в информационном пространстве, а также влияние на общественное сознание. В условиях расширения цифровых технологий и социальных сетей информационные атаки выходят за рамки традиционных военных действий и осуществляются посредством дезинформации, манипулятивных нарративов и координированных информационных кампаний. В исследовании анализируются провокации, осуществляемые через фейковые сообщения, методы их идентификации, а также психологические и политические последствия гибридных тактик. Особое внимание уделяется влиянию информационных атак на общественное мнение, социальную стабильность, а также процессы принятия решений на национальном и международном уровнях. Результаты исследования обосновывают возрастающую значимость профессиональной журналистики,

соблюдения этических норм и информационной безопасности в противодействии гибридным угрозам.

**Ключевые слова:** Информационная атака, фейк, троллинг, хамелеон, фишинг, цветная революция, 4GW, каминг-аут, информационный конфликт, фактчекинг.

**Abstract:** This study examines fake news and information attacks as a new form of modern hybrid warfare. The research explores the essence of hybrid wars, their implementation mechanisms in the information space, and their impact on public consciousness. In the context of expanding digital technologies and social networks, information attacks are no longer confined to traditional military actions but are carried out through disinformation, manipulative narratives, and coordinated information campaigns. The study analyzes provocations executed via fake news, methods for their identification, as well as the psychological and political consequences of hybrid tactics. Special attention is given to the influence of information attacks on public opinion, social stability, and decision-making processes at both national and international levels. The findings underscore the growing importance of professional journalism, adherence to ethical standards, and information security in countering hybrid threats.

**Keywords:** Information attack, fake news, trolling, chameleon, phishing, color revolutions, 4GW, coming-out, information conflict, fact-checking.

So‘nggi o‘n yilliklarda axborot makoni va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi natijasida gibril urushlar kontseptsiyasi an‘anaviy harbiy qarama-qarshiliklardan chiqib, axborot, psixologik, siyosiy va madaniy vositalar orqali olib boriladigan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Gibril urushlarning asosiy xususiyatlaridan biri — ular inson ongiga, ijtimoiy guruhlar va davlat institutlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan axborot kampaniyalarini o‘z ichiga oladi. Shu kontekstda feyk xabarlar, trolling, phishing va boshqa manipulyativ texnologiyalar gibril urushlarning eng dolzarb vositalariga aylangan. Axborot xurujlari nafaqat jamoatchilik fikrini shakllantirish, balki siyosiy barqarorlikni susaytirish, rangli inqiloblar kabi ijtimoiy harakatlarni qo‘zg‘atish va strategik qarorlar qabul qilish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan. Ayniqsa, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning global miqyosda kengayishi feyk xabarlar tarqalishining tezligi va samaradorligini oshirdi. Shu bilan birga, axborot xurujlarining murakkabligi va ko‘p qirraliligi ularni aniqlash va qarshi kurashni qiyinlashtirmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi — feyk xabarlar va axborot xurujlarini gibril urushlarning zamonaviy shakli sifatida tahlil qilish, ularning strukturasini, amalga oshirish mexanizmlarini, shuningdek, jamoatchilik ongiga, ijtimoiy barqarorlikka va milliy hamda xalqaro qaror qabul qilish jarayonlariga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganishdir. Tadqiqot natijalari professional jurnalistika, etik me’yorlar va axborot xavfsizligini mustahkamlash orqali gibril tahdidlarga qarshi samarali kurashning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda gibril urushlar mavzusi ommaviy axborot vositalarida va turli ilmiy forumlarda faol muhokama qilinmoqda. Mutaxassislar ushbu hodisaning hanuzgacha terminologik barqarorlik va ravshanlikka ega bo‘lmagan turli xil, ko‘pincha o‘zaro istisno ta’riflarini berishadi. Biroq gibril urush termini hozirgi kunda mutlaqo boshqacha ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni, axborot xurujlari, urushlari, mojarolari va feyk, trolling, xamaleon, fishing xabar ko‘rinishida yuzaga chiqmoqda. Mazkur atama va terminlarning media makonda o‘rni qanday va gibril urushga qay tarzda dahl qilishini tahlil qilib o‘tamiz. Jahon tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajovuz hukmronlikning yagona vositasi bo‘lishni to‘xtatgan. Shu munosabat bilan zamonaviy ilm-fan qarama-qarshilikning bilvosita shakllarini o‘rganib, axborot urushiga alohida e’tibor qaratmoqda.

**“Axborot urushi”** atamasi endi ko‘proq jurnalistik xarakterga ega va hali keng tan olinmagan. Bunga ushbu konsepsiya asosida aslida nimani yashirishi, shuningdek, ushbu atamaning to‘g‘riligi va amaliy qo‘llanilishi to‘g‘risidagi bahslar, odatda ijtimoiy tizimlarning axborot sohasidagi axborot qarama-qarshiligi yoki manfaatlar to‘qnashuvi deb ataladigan ijtimoiy munosabatlar sohasiga aytiladi. Endi axborot mojarasini oladigan bo‘lsak, bu ikki tushuncha bir xil ma’noni anglatadi deganlar, mutlaq adashadilar.<sup>99</sup>

**“Axborot mojarosi”**— tushunchasi axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan, qarama-qarshi yo‘naltirilgan maqsadlar va manfaatlar, pozitsiyalar va fikrlar to‘qnashuvini anglatadi.<sup>100</sup> Axborot mojarosining ishtirokchilari axborot tarqatish manbalari va vositalariga ega bo‘lgan subyektlar bo‘lishi mumkin. “Axborot xuruji: Isroilning ko‘rinmas urushi” nomli maqolada berilishicha: *1967-yil Suriya, Iordaniya, Misr va Isroil o‘rtasida kelib chiqqan olti kunlik urush natijasida G‘arbiy Sohil, G‘azo Sektori va Sharqiy Quddus Isroil askarlari tomonidan bosib olindi. Shu yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi Isroilni bosib olingan hududlarni zudlik bilan tark etishga chaqiruvchi 242-Rezolyutsiya qabul qildi. Isroil Rezolyutsiya talablarini bajargani yo‘q. Uch milliondan ortiq falastinlik qariyb yarim asrdan beri noqonuniy harbiy bosqin ostida yashamoqda. Isroil olib borayotgan ko‘rinmas urushlardan biri – axborot xuruji haqida hikoya qilmoqchimiz. Bu urushda AQSh ommaviy axborot vositalari yahudiylar davlatiga qanday yordam ko‘rsatayotgani maqolaning asosiy mavzusi bo‘ladi*<sup>101</sup>, deya ta’rif beriladi.

Xalqaro Amnistiya tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, Isroil harbiy kuchlari bosib olingan hududlarda muntazam ravishda inson huquqlarini poymol etib keladi. Noqonuniy odam o‘ldirish, mahkumlarni qiynoqqa solish, xo‘rlash, ichida odam bo‘laturib uylarni buzib tashlash, tez tibbiy yordam mashinalarini o‘tkazmaslik, gumanitar yordam ko‘rsatishdan bosh tortish hamda Falastin tinch aholisidan jonli to‘siq sifatida foydalanish. Bular xalqaro huquq tilida

<sup>99</sup> Freedom House. (2022). Freedom on the Net 2022: Global Challenges in Information Space. <https://freedomhouse.org> (<https://freedomhouse.org/>)

<sup>100</sup> Benkler, Y., Faris, R., & Roberts, H. (2018). Network Propaganda: Manipulation, Disinformation, and Radicalization in American Politics. Oxford University Press.

<sup>101</sup> Макаров В.Е. “Политические и социальные аспекты информационной безопасности. Монография”. Таганрог: Издательство С.А. Ступина, 2015.С9-8.

urush jinoyatlari deb ataladi. Isroildagi “Adolatli tinchlik uchun ayollar” koalitsiyasi yetakchisi Gila Svirski Falastindagi kundalik hayotni shunday tasvirlaydi: “Zulm shunchalik borib yetadiki, favqulodda holatlar e‘lon qilinganda, falastinliklar kunlab o‘z uylaridan tashqariga chiqqa olmaydi, – deydi u. Buning sababi oddiy, Isroil harbiylari ularni ko‘chalarda ko‘rishni xohlamaydi. Bu degani, ular oziq-ovqat ham sotib ololmaydi, farzandlarini maktabga yuborolmaydi, hatto ko‘chani kesib qo‘shnisinikiga chiqolmaydi. Bemor bo‘lsa, tibbiy yordam ham ololmaydi. Xullas, uydan chiqib bajarish lozim bo‘lgan eng muhim yumushlardan birortasini qila olmaydi. Bunday hayot kechirish dahshatning o‘zginasi”<sup>102</sup>.

Amerikalik faylasuf va siyosatshunos Noam Chomskiga fikriga ko‘ra, Isroil bosqini zamonaviy tarixdagi eng uzun davom etgan harbiy jinoyatdir: “G‘arbiy Sohil va G‘azo Sektori harbiy bosqin ostida. Bu zamonaviy tarixdagi eng uzoq davom etgan bosqin. Bu bosqin o‘ta qattiq va shafqatsiz bo‘lib, boshidan zo‘ravonlik asosiga qurilgan. Hayot aholi uchun yashash mumkin bo‘lmagan bir darajaga keltirilgan”<sup>103</sup>.

Maqolaning mazmunidan kelib chiqib, zamonaviy dunyoda urushdan g‘olib chiqish uchun harbiy salohiyatning o‘zi kamlik qiladi. Buning uchun g‘oliblikka da‘vogar taraf BMT soyasida turgan xalqaro hamjamiyatni adolatli urush olib borayotganiga ishontirishi ham lozim. Isroil buni yaxshi biladi. Shu maqsad yo‘lida Isroil, avvalo, dunyo lideri, demokratiyaning otasi va axborot asrining bayroqdori AQShning qo‘llab-quvvatlovini qo‘lga kiritgan. Amerika hukumati yahudiylar davlati paydo bo‘lgandan beri Isroilning eng yaqin do‘sti sanaladi. Isroilga qarshi BMT Xavfsizlik Kengashi qabul qilgan ko‘plab rezolyutsiyalar, aynan, AQShning vetosiga uchragani bois Falastinda insoniyatga qarshi sodir etilgan ko‘plab jinoyatlar hanuz jazosiz qolmoqda. Ammo urushda yengib chiqish uchun Isroil nafaqat AQSh hukumatini, balki bu mamlakatning mustaqil ommaviy axborot vositalarini ham o‘z jiloviga olishi lozimligini ta’kidlash joiz. Chunki dunyoning eng qudratli, eng ta’sirchan ommaviy axborot vositalari aynan AQShda joylashgan.

AQSh ommaviy axborot vositalarida yoritiladigan xalqaro yangiliklarning asosiy qismini Isroil-Falastin mojarosi egallaydi. Bu yangiliklar mojaro haqida amerikaliklar ma’lumot oladigan asosiy manba hisoblanadi. Shuning uchun ularda nimalar yoritilayotganini tekshirish va faktlarga savol nazari bilan qarash lozim. “AQShlik jurnalist Alisa Solomong fikricha, jurnalistlarning bo‘layotgan voqealarni dunyoga to‘g‘ri yetkazmayotgani muammoning asosiy sababidir. “Vaziyatning qaltisligi shunda”, – deydi u<sup>104</sup>. Yetarli darajada xabar berilmaydi, suratlarni ko‘rmaymiz. Tahlil yo‘q, bosqin ostidagi falastinliklar holatini tasvirlab beradigan ovoz yetishmaydi. Holat shunchalik yetib bordiki, bosqin davom etayotganidan dunyoning xabari ham yo‘q. AQSh OAVsi va Falastin o‘rtasidagi munosabatlar, yangiliklar, ayniqsa, televizion yangiliklar qaysi voqea muhimroq ekanini aniqlashda va bu voqealar haqida

<sup>102</sup> Joint Pub 3-13 «Information Operations», DOD US, URL: [http://www.c4i.org/jp3\\_13.pdf](http://www.c4i.org/jp3_13.pdf)

<sup>103</sup> Савин Л.В. Сетевая и сетевая война. Введение в концепцию. М.: Евразийское движение, 2011. С-23.

<sup>104</sup> Rabin Havt, Ari, and Media Matters for America. Lies, Incorporated: The World of Post-Truth Politics. Anchor. 2016. pp.37-49

tasavvurimiz shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Isroil Amerika xalqi ongiga ta’sir etishda shu mamlakat ommaviy axborot vositalari kuchidan foydalanadi. AQShdagi “Texas-Austin” nomli universitetda jurnalistikadan saboq beruvchi professor Robert Jensenning aytishicha, Isroil Falastinga qarshi Amerikadagi ikkinchi frontda ham kurash olib bormoqda. “Isroil, darhaqiqat, ikkita frontda urush olib boryapti, – deydi u. Birinchisi bosib olingan hududlarda Falastin aholisiga qarshi davom etayotgan harbiy harakat. Ikkinchisi Isroil bosqiniga AQShning doimiy madadini ta’minlash maqsadida OAV orqali olib borilayotgan Pi Ar (PR) kampaniyasi. Isroilning Nyu-Yorkdagi Bosh konsuli va Pi Ar aksiyalari koordinatori Alon Pinkas yaqinda shunday so‘zlarni aytdi: “Biz ayni damda falastinliklar bilan urush holatidamiz va muvaffaqiyatli Pi Ar kompaniyasi bu urushda yutib chiqishning bir yo‘lidir”<sup>105</sup>.

Shunday ekan, Isroil G‘arbiy Sohil va G‘azo hududlarini bosib olishdan tashqari, Amerika matbuotini ham g‘oyalar hujumi orqali egallab olishga urinmoqda, deyish mumkin. Isroilning PiAr kompaniyasi tarixi 1982-yilgi Livan istilosiga borib taqaladi. O‘shanda Isroil Livanni bosib olgani uchun, ayniqsa, Sabra va Shatila qochoqlar lagerlarida Falastin aholisini qatl etgani uchun xalqaro hamjamiyatning kuchli tanqidiga uchragan edi. Halok bo‘lgan minglab tinch aholi Isroilning pinagini ham buzmad. Ammo uning xalqaro “imiji”ga yetgan putur katta muammo sifatida hukumatni jiddiy tashvishga soldi. Angliyaning “The Independent” gazetasi muxbiri Robert Fisk o‘sha kunlarni shunday xotirlaydi: “Ular Beyrutni o‘rab olishdi. Uch oy ichida deyarli barchasi tinch aholi bo‘lgan 17 yarim ming odamni qirishdi. Minglab jasadlarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Keyin Sabra va Shatila lagerlarida ommaviy qirg‘in boshlandi. Dunyo larzaga tushdi. Isroilliklar nimani noto‘g‘ri qildik, deya hayron. Keyin o‘ylab qarashsa, yaxshi Pi Ar qilisholmagan ekan”.<sup>106</sup> Bundan ko‘rinadiki, OAV larida materiallarni ya’niki pashsha misoli manzarani fil darajasiga olib chiqish, xalq tilida aytganda “pashshadan fil yasash”, jamoatchilik fikrni o‘ziga tortish jalb etishda albatta jurnalistika, internet, vizualizatsiya, kommunikatsiyaning o‘rni yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

AQShda yoritiladigan yangiliklar jamiyatning bir qator murakkab munosabatlari ta’siriga uchraydi. Yangilik suxandonning tiliga yetib kelguncha bir necha chig‘iriqdan o‘tishi kerak. Yaqin Sharq mojarosi Amerika ommaviy axborot vositalari tomonidan qanday yoritilishini o‘rganishdan oldin ana shu munosabat va chig‘iriqlar qanday ishlashini tushunib olishimiz lozim. Yangiliklarni elakdan o‘tkazadigan eng muhim omillardan biri bu ommaviy axborot vositasiga egalik qiluvchi korporatsiyaning biznes manfaatidir. Buni alohida ta’kidlamaslikning iloji yo‘q, albatta. Bunday manfaat AQSh chegarasidan oshib yer sharining u yuzidagi Yaqin Sharqqacha tutashgan. Media korchalonlarining iqtisodiy manfaati hamma narsadan ustun bo‘lib, axborot urushlari va ularning turli ko‘rinishlari (fake, trolling, qora piar, xameleon, fishing va hakazolar)dan unumli foydalanib borishadi. Nafaqat siyosatchilar balki boshqa soha vakillari ham hozirgi kunda axborot urushiga nisbatan samarali usul sifatida

<sup>105</sup> Williamson Murray, Peter R. Mansoor. Hybrid Warfare: Fighting Complex Opponents from the Ancient World to the Present. Cambridge University Press. 2012. Page66.

<sup>106</sup> Р.Эрнест Дюпюи, Тревор Н. Дюпюи. Всемирная история войн (в 4-х тт.). Книга 4 (1925—1997). СПб., М., «Полигон-АСТ». 1998. С.35-36

qarashmoqda, o‘z manfaatlariga erishish yo‘lida. Yaqin Sharqning qanday strategik ahamiyatga ega ekani Isroil-Falastin mojarosining matbuotdagi ifodasida o‘z aksini topadi. Uchinchi chig‘iriq bu Isroilning jamoatchilik ko‘zini bo‘yashga qaratilgan Pi Ar kompaniyasidir. Isroil hukumati o‘zining siyosiy va axborot dasturlarini amalga oshirishda Amerikaning eng katta xususiy Pi Ar kompaniyalarini ishga yollaydi. Isroilning AQShdagi 9 ta konsulligi bu ishga jurnalistlarni ham jalb etadi. Nasoro va yahudiylarga tegishli bir qator yirik xususiy kompaniyalar Isroilga xayrixoh bo‘lmagan OAVlarga qarshi tashkil etilgan harakatlarni qo‘llab-quvvatab, bu boradagi Isroilning rasmiy mavqeini bot-bot eslatib turadi. Ana shunday qudratli tashkilotlardan biri bu AIPEK, Amerika-Isroil Jamoatchilik bilan aloqalar qo‘mitasidir. Mazkur tashkilot Isroilning Vashingtonda joylashgan eng katta lobbisi hisoblanadi. Yaqin Sharq mojarosining OAVda qanday aks etishini Amerika iqtisodiy va siyosiy doiralarning Isroil propagandasi bilan birlashuvi hal qiladi. Isroil hukumati siyosatiga qarshi bo‘lgan “Yahudiylar bosqinga qarshi” yoki “Amerikaliklar tinchlik uchun” kabi ilg‘or tashkilotlarning bunday chig‘iriqlardan oshib o‘tishi dargumon. Nihoyat, agar Isroilni qoralovchi biror xabar matbuotga sizib chiqsa, OAVni kuzatuvchi bir qator isroilparast guruhlar jurnalistlar va OAVga bosim o‘tkazishni boshlaydi. “Isroilparast bo‘lgan o‘ng qanot tashkilotlar bor,” – deydi jurnalist Solomon. Ular o‘z ishlarini monitoring deb ataydi. Men esa ular faoliyatini jurnalistlarga tahdid qilish deb atayman. Yangiliklar xolis bo‘lsin, degan da’vo bilan ular, aslida, Isroilga xayrixoh materiallar tayyorlanishini istaydi.

AQShda joylashgan “Jurnalistikada adolat va haqqoniylik” tashkiloti vakili Set Akermenning aytishicha, ishi faqat muharrirlarga maktub yozish bo‘lgan maxsus guruhlar bor. “Ularning talabi – Isroilni qoralovchi xabarlar o‘zgartirilishi yoki uni yozganlar ishdan bo‘shatilishi lozim”<sup>107</sup>. Maqola va unga berilgan izohlarda, axborot xurujining katta maydonlarda yirik davlatlar tomonidan uyishtirilayotgan o‘yinlarga guvoh bo‘ldik. “Urush” bu ichki va siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish va subyektning irodasini bo‘ysundirish maqsadida tinch va harbiy yo‘l bilan aholiga, shuningdek dushman hokimiyatiga qarshi qaratilgan tajovuzkor harakatlardir. Axborot makonidagi urushlar tajovuzkor texnologiyalarni qo‘llash bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, axborot urushi va axborot qarama-qarshiligi sohasidagi ziddiyatlarning intensivligi qarama-qarshi bo‘lgan ikki turi mavjud. Ilmiy munozaralarda tobora ko‘proq foydalaniladigan, ammo ba’zi hollarda yangilish talqin qilinadigan yana bir tushuncha “to‘rtinchi avlod urushlari” dir.

Axborot makonida RAND korporatsiyasi mutaxassislari to‘rt avlod urushlarining tasnifini ishlab chiqdilar:

- 1) chiziqli taktika yordamida birinchi avlod urushlari;
- 2) ikkinchi avlod urushlari, asosan pozitsion xarakterga ega edi;
- 3) uchinchi avlod urushlari, ular mobil urush deb ataladi;

<sup>107</sup> “Axborot xuruji: Isroilning korinmas urushi”. <https://tashabbus.org>

4) asosiy maqsad dushmani axloqiy jihatdan bo'ysundirish bo'lgan to'rtinchi avlod urushlari (keyingi o'rinlarda 4GW deb ataladi)<sup>108</sup>.

To'rtinchi avlod urushlariga ikkinchi avlod strategik axborot urushlari kiradi. Ular axborot inqilobidan kelib chiqadigan, axborot makonini va boshqa bir qator sohalarni (iqtisodiyot, madaniyat va boshqalarni) qarama-qarshilikning mumkin bo'lgan doiralari doirasiga kiritadigan strategik qarama-qarshilikning tubdan yangi turini ifodalaydi. Ushbu urushlar boshqacha yondashuvni nazarda tutadi: ma'naviyat va axloqsizlik muhitini yaratish, jamoat ongi va mamlakat aholisining siyosiy yo'nalishini boshqarish; fuqarolarning davlat organlari faoliyati to'g'risida noto'g'ri ma'lumot berish, ularning hokimiyatiga putur yetkazish, dushman hokimiyatini obro'sizlantirish va boshqalar. To'rtinchi avlod urushlari tinch va professional askar o'rtasidagi chegarani buzadi. Shu bilan birga, urush hech qachon e'lon qilinmaydi. Tashqi tomondan, hatto raqiblar o'rtasida juda do'stona munosabatlar bo'lishi mumkin. Agressiv davlat muxolifat nodavlat aktyorni yollaydi, qurollantiradi, o'qitadi va moliyalashtiradi. Ular birgalikda qurol ishlatishda (inqilobda) ham, ulardan foydalanmasdan ham harakatlarda, axborot xurujlarida buzg'unchilik operatsiyalarini rejalashtiradilar. Ushbu mavzular keng ommaviy axborot vositalarida qo'llab-quvvatlanadi. Amalda 4GW (Yugoslaviya, Misr, Tunis va boshqa mamlakatlarda) ishlab chiqilgandan so'ng, jurnalistikada texnologiya nuqtai nazaridan ushbu hodisa "rangli inqiloblar" deb nomlanadi<sup>109</sup>.

Amaliyot nazariyasi nuqtai nazaridan 4GW "boshqariladigan betartiblik" nazariyasini asos qilib oldi. Shunday qilib, 4GW - bu ta'sirlar urushi sanaladi. Yuqori buyurtmalarning ta'sirini hisoblab chiqa oladigan kishi, u dushmani bo'ysundira oladi. 4GW strategiyasi asosiy siyosiy prinsipga asoslanadi, agar u to'g'ri qo'llanilsa kuchli siyosiy iroda iqtisodiy va harbiy kuchdan tashqariga chiqishi mumkin. "Rangli inqiloblar" deb nomlangan axborot urushlarining ikkinchi avlodiga tegishli bo'lib, ularning mexanizmlari ma'lum. Ushbu urushlar statsionar sharoitda, ya'ni vaziyat shartlari sekin o'zgarganda olib boriladi. Bunday urushlarda moliyaviy resurslar bo'yicha dushmandan ustun bo'lgan kishi g'olib sanaladi. Shuningdek, u uchinchi avlodning axborot urushlari, uni aqlli deb belgilaydi. XXI asrda geosiyosiy muammolarni hal qilish uchun qurolga murojaat qilish, harbiy nizolarni qo'zg'atish yoki harbiy tajovuzga o'tish kerak emas. Hamma narsani axborot qarama-qarshiligi urush doirasida hal qilish mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, strategik axborot urushi 4GW ning tarkibiy qismi bo'lib qolmay, gibridd urushning to'liq shaklini olishga ulgurdi. 4GW so'zning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosi urush strategiyasi bo'lib, u turli xil qurollardan foydalanish, harbiy taktika, harbiy va fuqarolik infratuzilmasini yo'q qilish va katta miqdordagi odam halok bo'lishini o'z ichiga oladi, ammo ma'lumot va psixologik tarkibiy qismlar muhim rol o'ynashi inkor etilmaydi. Ilm-fan sohasida ko'pincha axborot urushlarini amerikalik noan'anaviy urushlar tushunchasi – noan'anaviy urush (UW) bilan tenglashtirishga yo'l qo'yiladi. UW kontseptsiyasi shuni

<sup>108</sup> Позубенков П.С., Позубенков С.П. Гибридные войны в современном информационном пространстве // Научно-методический электронный журнал «Концепт». - 2016. С106-107.

<sup>109</sup> Sharp Gene. The Politics of Nonviolent Action. Boston, MA: Porter Sargent. 1973. 72 p.

anglatadiki, noqonuniy dushman mustaqil ravishda emas, balki uchinchi davlatlar yoki tashkilotlarning (nodavlat notijorat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy armiyalar, korporatsiyalar va boshqalar) bevosita sukut ko‘magi bilan harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ma’lum bir davlat yoki tashkilot qurolli tuzilmani moliyalashtiradi, jangchilarini o‘qitadi, qurol va o‘q-dorilar yetkazib beradi, siyosiy qo‘llab-quvvatlaydi va boshqa yo‘llar bilan yordam beradi. Ushbu tushuncha Iroq, Suriya va Liviyada hokimiyat almashganda amalda qo‘llanilgani ta’kidlab o‘tish o‘rinli.

Mamlakatlardagi noan’anaviy urushdan oldin axborot urushi boshlanib, unda “boshqariladigan betartiblik” elementlari keyinroq paydo bo‘la boshladi. Bundan tashqari, noan’anaviy urush dunyo hamjamiyatidan urush haqiqati, ishtirok etgan tomonlar va ularning asl maqsadlarini yashirish uchun axborot xurujlari bilan birga olib borildi. Ammo biz axborot urushini noan’anaviy urush bilan tenglashtira olmaymiz. Odatda, shu jumladan ilm-fan va jamoat maydonlarida noan’anaviy urushlarning sinonimi sifatida gibril urush atamasi qo‘llanib kelmoqda.

Axborot olamida deyarli auditoriyani o‘ziga qamrab olgan xabarlardan biri feyk xabar sanaladi. Uning bugungi ko‘rinishi o‘zi qanday va davlatlarga qanday manfaat keltirmoqda, degan savol tug‘ilishi tabiiy albatta. Feyk — bu shov-shuvga erishish maqsadida ataylab tarqatilgan yolg‘on xabar hisoblanadi. Feyk xabarlar “virus uslubida” tez tarqalish xususiyatiga ega, uni tarqatuvchi anonim yoki psevdononim bo‘lishi ham shart emas. Xabarning feyk ekanini bilib olish va unga qarshi kurashish oson, deydi mutaxassis, professor Andrey Manoylo. Feyk xabarlar, birinchi navbatda inson psixikasiga ta’sir qilishga yo‘naltirilgan. Ya’ni ular odamni aql yoki mantiq bilan emas - his-tuyg‘u va emotsiya ta’sirida harakat qilishga undaydi, - deydi Manoylo<sup>110</sup>. Mutaxassis fikriga ko‘ra, vahimali yoki shov-shuvli xabar kishini zaharlaydi va u bir zumda hayajonga to‘ladi qandaydir harakat qilish istagi paydo bo‘ladi. Ko‘p hollarda feyk xabarlar axborot vakuumi paydo bo‘lgan joyda paydo bo‘ladi. Masalan, biror joyda bir muhim hodisa yoki favqulodda vaziyat sodir bo‘ldi, tabiiyki odamlarda ushbu haqida imkon qadar qisqa vaqt ichida ko‘proq va batafsil ma’lumot bilib olish ehtiyoji tug‘iladi.

Ana shunday vaziyatda hukumat yoki tegishli tashkilot kerakli ma’lumotlarni rasman e’lon qilinishini kechiktirsa, press-relizlar e’lon qilinishdan oldin bir necha instantliyadan o‘tishi kerak bo‘lsa – axborot vakuumi paydo bo‘ladi. Bo’shliq tez fursat ichida turli feyk, mish-mish va boshqa yolg‘on xabarlar bilan to‘la boshlaydi. Oradan bir necha soat o‘tganidan keyin juda to‘liq rasmiy xabar e’lon qilinsa ham – u hech kimga kerak bo‘lmay qoladi, chunki odamlar allaqachon feyklar bilan “to’yib” bo‘lishgan bo‘ladi. Shuning uchun feyklarga qarshi kurashning eng samarali yo‘li – axborot kundaligida yetakchilikni qo‘lga kiritib olish, rasmiy nuqtai nazarni birinchilardan bo‘lib odamlarga yetkazishdir. Hozirgi davrda feyklar fabrikasi va uning egalari kim yoki qaysi degan savol barchani o‘ylantiradi. Mazkur savolga quyidagi misolni keltirish joiz. So‘nggi vaqtlarda Bellingcat axborot agentligi tez-tez esga olinmoqda.

<sup>110</sup> Григорьев В.Р. Информационные вирусы - новое оружие массового поражения // Информационные войны. Московская область: Юбилейная. № 3. 2008. С-11

OAVda agentlik tashkilotchisi sifatida tilga olinadigan "Elliot Xiggins" kitob chop etdi. Uning sherigi "Xristo Grozev" yoki "Moris Rakushiskiy" (ikkalasi ham bitta odam) yangi fosh etishlarni va'da bergan. Ushbu fosh etishlar bahosi esa allaqachon ma'lum — Donbassda urib tushirilgan Boing, Gutadagi kimyoviy hujum, Skripallar va Navalniyning zaharlanishi haqidagi feyklar mualliflari hech qachon haqiqatni aytish uchun o'zlarini qiynamaganlar. Bu uydirmalar haqida jiddiy gapirish mumkin emas — uni jurnalistik surishtiruv janriga kompromat deb atash mumkin. Ammo "Bellingcat" agentligining dunyoga kelishi tarixi ancha qiziq. Ushbu feyklar fabrikasi qay tariqa yuzaga kelgani haqida aytib o'tishni lozim topdim. 2010-yilning boshida Afg'onistondagi amerika harbiy razvedkasi boshlig'i Maykl Flinn "Razvedka qanday sozlanadi?" mavzusida juda qiziq dokladni e'lon qiladi<sup>111</sup>.

2008-yildan 2017-yilgacha Iroq, Afg'oniston, Liviya va Suriyada Bob Sili chindan ham boshqa narsalar bilan shug'ullangandir. Nima bo'lganda ham, mana bugun taniqli siyosatchiga aylangandan so'ng ham Sili o'zini Shtirlits kabi tutishda davom etmoqda. U o'z yaqinlari, otanasi yoki sirli rafiqasi aks etgan bironta fotosuratni hech qachon e'lon qilmagan. Perlar kitobida "Nata Rasimas" sifatida tilga olingan bo'lsa-da, ammo axborot maydonida u haqda hech qanday ma'lumot mavjud emas. Sili hamma joyda yakka o'zi ko'rinish beradi, ha aytgancha, ular huquqlarining ashaddiy himoyachilaridan biri sifatida ham nom qozongan.

Uning tarjimai holi avvalgidek katta qiziqish uyg'otib keladi. Silining oilasi bir asr oldin Angliyaning eng badavlat oliy martabali oilalaridan biri bo'lgan. Uning nasl-nasabi tarixi huddi doston singari o'qiladi - undan baron-u baronetalar, gubernatorlar, vazirlar, parlament a'zolari o'rin olgan. O'g'illarining hammasi Xerrouda o'qigan, goh Uinston Cherchill, goh shahzoda Filipp ularning cho'qintirgan otasiga aylanishadi. Sililar oilasi yaqinda taniqli aktyor - mashhur aslzoda - Benedikt Kamberbatch bilan qarindoshlik rishtalarini bog'ladi. Uayt orolidagi eng yirik yer egasi sifatida mahalliy aholi 2017-yilda Silini parlamentga sayladi - bu oilaviy an'analardan biri sanaladi. 1990-yillar boshida Xerrouni tamomlagan Bob Sili sobiq sovet ittifoqi hududida stringer sifatida faoliyat yuritgan. U Kiyev, Tiraspol, Chechenistondan reportajlar tayyorlardi. Uning asosiy ish beruvchisi The Times nashri edi. 2012-yillar boshida internet makonida "Qoramag'iz Moisey" (Brown Mozes) blogi paydo bo'ladi. Bu Frenk Zappa qo'shig'i nomi edi. Sili rok-musiqani yaxshi ko'radi, ma'lum vaqt Britaniya MTV sida ishlagan va gitarani qoyilmaqom chala oladi<sup>112</sup>. Keyinchalik "Qoramag'iz Moisey"ni OAV "eng zo'r blogger" deya ataydi, aslida esa uning yozganlarini o'qib bo'lmaydi. Bu shunchaki gazetalarda chiqqan o'zga mualliflar maqolalari asosida to'qilgan narsalar edi. Zerikarli, biryoqlama va bachkana. Avvaliga "Moisey" Rupert Merdokning News Corporation nidan shaxsiy ma'lumotlar o'g'irlanishi bilan bog'liq janjalni yoritadi. O'shanda jamoatchilikda avstraliyalik mediamagnatga maxsus xizmatlarning poraxo'r xodimlari ishlagan, degan jiddiy gumonlar paydo bo'lgan. "Moisey" blogi esa mushtariylarni bu mavzudan astoydil uzoqlashtirishga

<sup>111</sup> Feyklar-fabrikasi-va-uning egalari// <https://sputniknews-uz.com>.

<sup>112</sup> Выпасняк В.И., Тиханычев О.В., Гахов В.Р. Кибер-угрозы автоматизированным системам управления // Вестник Академии военных наук. 2013. № 1(42). С.103-109.

intilar, barcha ishoralarni Skotlend-Yardga burar edi. Ammo hech kim bu materiallarni o‘qimasdi. “Zo‘r blogger” o‘z auditoriyasidan nari borsa ikkita izoh olishi mumkin edi. Oradan vaqt o‘tib “Moisey” Suriya mavzusiga qiziqib qoladi. Noma‘lum blogger, aftidan, Flin dokladidagi “iqtidorli va och” analitik qilishi lozim bo‘lgan ishlarni qilardi. U Suriyadan YouTubega yuklangan videolarni ko‘rib chiqib, ularni mos sarlavhalar bilan nomlagan holda taqdim etadi. Masalan: “Shrapnel (artilleriya quroli turi)dan o‘q yegan 12 taga yaqin go‘daklar jasi” singari. Bundan ko‘rinadiki, mavzu o‘ziga tortadi. Ammo blogger ma‘lumotlarni tahlil qilmaydi, balki barchasini javobga yaqin olib keladi. U Xuladagi fojiada shak-shubhasiz Suriya hukumatini ayblaydi, garchi keyingi tergov ishlari ommaviy qotilliklar jangarilar tomonidan sodir etilganini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, bu hech qanday razvedka emas, balki tozalangan propagandaning o‘zi edi. AQSh misolida, The New York Times muxbiri Si Jey Chivers tomonidan ommaga tanishtirilgan va Xorvatiyadan Suriyaga qurol eksporti bo‘yicha surishtiruvlar qilgan blogger Eliot Xigginsning faoliyati buni yaqqol ko‘rsatadi. Xigginsning maqolalari Britaniya va Amerika ommaviy axborot vositalari tomonidan keng e‘tirof etilib, u professional harbiy tahlilchi sifatida mashhur qilindi. Shu bilan birga, uning asarlarida taqdim etilgan materiallarning ko‘p qismi faktlar bilan mustahkamlanmagan bo‘lishiga qaramay, u axborot xurujlari va gibril urushlarda samarali vosita sifatida ishlatilgan. Bob Sili va Bellingcat agentligi kabi platformalar gibril urush vositalari sifatida axborot maydonida dezinformatsiya, propaganda va ijtimoiy tarmoqlardagi faol tadbirlarni amalga oshiradi. Bu misollar gibril urushlarning axborot komponenti va ularning jamoatchilik ongiga ko‘rsatadigan ta‘sirini ochib beradi. Shu kontekstda, ushbu tadqiqotning maqsadi — feyk xabarlar va axborot xurujlarini gibril urushlarning zamonaviy shakli sifatida tahlil qilish, ularning strukturasi, amalga oshirish mexanizmlarini, shuningdek, jamoatchilik ongiga, ijtimoiy barqarorlikka va milliy hamda xalqaro qaror qabul qilish jarayonlariga ko‘rsatadigan ta‘sirini o‘rganishdir. Tadqiqot natijalari professional jurnalistika, etik me‘yorlar va axborot xavfsizligini mustahkamlash orqali gibril tahdidlarga qarshi samarali kurashning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot feyk xabarlar va axborot xurujlarini zamonaviy gibril urushlarning yangi shakli sifatida tahlil qildi. AQSh misolida olib borilgan tahlillar gibril urushlarning an‘anaviy harbiy qarama-qarshiliklardan tashqari, axborot, psixologik, siyosiy va madaniy vositalar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Blogger Eliot Xiggins va Bellingcat agentligi faoliyati shuni isbotlaydiki, dezinformatsiya, trolling, phishing va manipulyativ narrativlar xalqaro axborot maydonida strategik qarorlar qabul qilishga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga va ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, feyk xabarlar va axborot xurujlari o‘zlarining tezkorligi, global tarqalish imkoniyati va ko‘p qirrali strategik natijalari bilan gibril urushlarda samarali qurol sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, ularni aniqlash, tekshirish va qarshi kurashish mexanizmlari, xususan fact-checking va professional jurnalistika, axborot xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Natijalar shuni ta‘kidlaydiki, gibril urushlarning zamonaviy shakllariga qarshi samarali kurash faqatgina axborot makonini nazorat qilish, jamoatchilikni ongli ravishda xabardor qilish va axborot

xavfsizligi me‘yorlarini kuchaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu jihatdan, feyk xabarlar va axborot xurujlarini o‘rganish va ularning gibrud urushlar kontekstidagi roli bo‘yicha izlanishlar strategik va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Freedom House. (2022). Freedom on the Net 2022: Global Challenges in Information Space. <https://freedomhouse.org> (<https://freedomhouse.org/>)
2. Benkler, Y., Faris, R., & Roberts, H. (2018). Network Propaganda: Manipulation, Disinformation, and Radicalization in American Politics. Oxford University Press.
3. Макаров В.Е. “Политические и социальные аспекты информационной безопасности. Монография”. Таганрог: Издательство С.А. Ступина, 2015.С9-8.
4. Joint Pub 3-13 «Information Operations», DOD US,URL:[http://www.c4i.org/jp3\\_13.pdf](http://www.c4i.org/jp3_13.pdf)
5. Савин Л.В. Сетевая и сетевая война. Введение в концепцию. М .: Евразийское движение, 2011.С-23.
6. Rabin Havt, Ari, and Media Matters for America. Lies, Incorporated: The World of Post-Truth Politics. Anchor. 2016. pp.37-49
7. Williamson Murray, Peter R. Mansoor. Hybrid Warfare: Fighting Complex Opponents from the Ancient World to the Present. Cambridge University Press. 2012. Page66.
8. Р.Эрнест Дюпюи, Тревор Н. Дюпюи. Всемирная история войн (в 4-х тт.). Книга 4 (1925—1997). СПб., М., «Полигон-АСТ». 1998. С.35-36
9. Р.Эрнест Дюпюи, Тревор Н. Дюпюи. Всемирная история войн (в 4-х тт.). Книга 4 (1925—1997). СПб., М., «Полигон-АСТ». 1998. С.35-36
10. “Axborot xuruji: Isroilning korinmas urushi”. <https://tashabbus.org>
11. Позубенков П.С., Позубенков С.П. Гибридные войны в современном информационном пространстве // Научно-методический электронный журнал «Концепт». - 2016. С106-107.
12. Sharp Gene. The Politics of Nonviolent Action. Boston, MA: Porter Sargent. 1973. 72 p.
13. Григорьев В.Р. Информационные вирусы - новое оружие массового поражения // Информационные войны. Московская область: Юбилейная. № 3. 2008. С-11
14. Feyklar-fabrikasi-va-uning egalari// <https://sputniknews-uz.com>.
15. Выпасняк В.И., Тиханычев О.В., Гахов В.Р. Кибер-угрозы автоматизированным системам управления // Вестник Академии военных наук. 2013. № 1(42). С.103-109.